

2022 yil "23" avgust

Qarshi sh.

Keyingi o'rinlarda "Tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi" deb ataladigan "Osiyo - Nafis" MCHJ mas'ul xodimi I.J.Fayziev orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan G'uzor tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokor D.SHOymardonov orqali ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Shartnomada tovar deb nomlanuvchi "Osiyo - Nafis" MCHJ tomonidan ishlab chiqarilgan Ooziq ovqat maxsulotlari ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi. Shartnoma 1 (bir) yil muddatga tuzilgan.

№	Maxsulot nomlari	ulchov birligi	Soni	Narxi	Summasi
1	Tayyor issiq ovkatlar etkazib berish xizmati	usluga	1	16200000	16200000
	Jami				16200000

1.2. Tovarning yaroqlilik muddati 3 (uch) kun. Yaroqlilik muddati tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab o'ta boshlaydi.

1.3. Umumiy narxi 16200000 ( Unolti million ikki yuz ming ) so'm.

Bir martalik tovarni yetkazib berish xarajatlari (harfda yoziladi) so'm. Umumiy narx 16200000 (Unolti million ikki yuz ming ) so'm

Tovar haqi shartnoma bo'yicha har bir yetkazilgan tovar va xarajatlar summasi miqdorida to'lanadi. Tovar yetkazib berilganligi bilan tasdiqlanadi.

**2. Tovarlarini yetkazib berish tartibi**

2.1. Shartnoma bo'yicha tovarlarni yetkazib berish tovarlarni sotib oluvchiga jo'natish yo'li bilan jo'natish raznaryadkasi orqali amalga oshiriladi.

2.2. Jo'natish raznaryadkasining jadvali shartnomaga ilova qilinadi.

2.3. Tovarlar faqat "Osiyo - Nafis" MCHJ qarashli avtomashinada yetkazilishi kerak. Tovarlar maxsus bir martalik idishlarda olib kelinib, bir martalik idishlar sotuvchiga qaytarilmaydi.

2.4. Tovar yetkazib berishning ayrim davrida uni to'liq yetkazib bermagan tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi yetkazib berilmagan tovarlar miqdorini shartnoma amal qilish muddati doirasidagi keyingi davrda yoki davrlarda to'ldirishi lozim.

2.5. Sotib oluvchi yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan tovarlarni qabul qilishni rad etishga haqli emas.

2.6. Sotib oluvchi shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta'minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Sotib oluvchi sotib olgan tovarlarni tovarlar yetkazib berilganidan keyin darhol ko'zdan kechirishi, agarda yetkazib berish bilan bog'liq kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tovar yetkazib beruvchi-sotuvchini zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

**3. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari**

3.1. *Sotuvchining huquqlari:*

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. *Sotuvchining majburiyatlari:*

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. *Sotib oluvchining huquqlari:*

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;

*Handwritten signature and date: 2022.08.23*

- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

#### 3.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish; - sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart

#### 4. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

4.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni

talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

4.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 4.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli. 4.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni; xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni; tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini; xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni; ko'rilgan zarar o'rmini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtida sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

4.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.6. Tovarlarini to'liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir yetkazib berilmagan yoki yetkazib berish muddatlari buzilgan tovarlar umumiy summasining 50 % miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi.

4.7. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama (to'liq yoki qisman) bosh tortishga taraflardan biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Shartnomani buzish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatlil bo'lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lgan tovarlarini yetkazib berish; - tovarlarini yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish.

4.8. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o'zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma bir taraf boshqa tarafdin shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bir taraflama bosh tortish to'g'risida bildirish xati olgan paytdan boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

#### 5. Fors-major holatlar

5.1. Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

#### 6. Taraflarning rekvizitlari

#### Sotib oluvchi:

Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi

"Osiyo - Nafis" MCHJ

Hisob-kitob raqami

20208000004696236001

"ASIA-ALLIANCE BANK Qarshi filii

MFO 01099 STR 300794634

Telefon 904254424

Rahbar: I. Fayziev

G'uzor tuman tibbiyot birlashmasi

Hisob-kitob raqami

Shxv: 100022860102077073102054003

"Markaziy" bankning Toshkent sh


bo'limida, bank kodi 00014

STIR 200676847

telefon 994567320

Rahbar:

D. SHOYMARONOV



Гузур туман тиббиёт бирлашмаси

Бошлиги \_\_\_\_\_ Д.Шаймардонов

№ \_\_\_\_\_ Гузур туман

28.07 2022 йил

Гузур туман тиббиёт бирлашмасини тайёр иссик овкат билан таъминлаш танлов асосида шартнома тузиб сотиб олишни ташкил қилиш комиссиясининг

**ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:**

Комиссия раиси КУК раиси:	Р.Назаров
АЪЗОЛАРИ:	
И.Рахимов	Котиб
Р.Омонкулов	Бош ҳисобчи
Аралов Ж	ҳисобчи
Турдиев ш	ҳисобчи
Н.Сайдуллаев	ҳужалик мудир

**Кун тартибда куриладиган масала:**

Гузур туман тиббиёт бирлашмасини тайёр иссик овкат билан таъминлаш учун 2022 йил август ойлари аутсорсинг фирмаси билан шартнома килиш ва шартномани тасдиқлаш тугрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб Гузур туман тиббиёт бирлашмасини тайёр иссик овкатлар билан таъминлаш бўйича 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар куйидагича:

Танлов конкурс буйича 2022 йил 18.07 кунда лот № 22110012124874 сонли протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан

катнашди ва энг юкори балл «Осиё Нафис» МЧЖ олди ва 2 кун муҳокамада куйилди ҳамда бошка эътирозлар булмагандан кейин «Осиё Нафис» мчж билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:**

1. «Осиё Нафис» МЧЖ ғолиб деб топилсин.
2. «Осиё Нафис» МЧЖкохонаси томонидан тавсия этилган тайёр иссик овкатларга шартнома тузиб олиб келишини ҳужалик мудир И.Файзиев топширилсин.
3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош ҳисобчи Р.Омонкуловга юклатилсин.

Комиссия раиси КУК раиси: \_\_\_\_\_ Р.Назаров

АЪЗОЛАРИ:	
И.Рахимов	ДИБ др муовини
Р.Омонкулов	Бош ҳисобчи
Аралов Ж	ҳисобчи
Турдиев ш	ҳисобчи
Н.Сайдуллаев	ҳужалик мудир
<i>Ш. Ахмедова</i>	<i>дир. калмишра</i>

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnomalarga oid,
2. Loyihaning nomi: Xizmat ko'rsatish shartnomasi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O'RQ-670-I-son "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining sharnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuniga asosan:

Mazkur xo'jalik shartnomasi O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining sharnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi qonuniga asosan shartnoma (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan.

G'uzor tuman tibbiyot birlashmasi va "Osiyo - Nafis" MCHJ o'rtasidagi 16,200,000 (O'n olti million ikki yuz ming) so'mni tashkil etgan SHTYO bo'limi uchun tayyor issiq ovqatlar yetkazib berish tog'risidagi xizmat ko'rsatish shartnomasi haqida

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot G'uzor tuman tibbiyot birlashmasining shartnoma va buxgalteriya bo'limi 2022 yil 23 avgust'.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz boshlig'i:

2022 yil «23» avgust'



B.Avazov